



O‘ZBEK ADABIYOTIDA BADIY OBRAZ VA UNING TAKOMILI

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.038>

Keldiyorova Naima Nabijonovna

Renessans ta’lim universiteti, dotsenti

Telefon: 909358998

Annotatsiya: Ushbu maqolada she’riyatdagi mavzu va obrazning o‘zaro munosabati aks etgan. Adabiyotshunoslik ilmida badiiy obrazga berilgan ta’riflar muhokama qilinib, Azim Suyun she’riyatidagi obrazlarning tasnifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mavzu, obraz, badiiy obraz, poetik obraz, konsepsiya, badiiy tasvir

Аннотация: В статье рассматривается соотношение темы и образа в поэзии. Обсуждаются определения художественного образа в литературоведении, а также представлена классификация образов в поэзии Азима Суюна.

Ключевые слова: тема, образ, художественный образ, поэтический образ, концепт, художественный образ

Annotation: This article reflects the relationship between the theme and the image in poetry. The definitions given to the artistic image in literary criticism are discussed, and the classification of images in the poetry of Azim Suyun is presented.

Keywords: theme, image, artistic image, poetic image, concept, artistic image

Aslida badiiy obraz tushunchasi keng tarqalgan bo‘lib, aynan “obraz” so‘zi va uning termin sifatidagi talqini adabiyotimizda XX asr boshlaridan tilga olingani kuzatiladi. Lekin bu o‘zbek adabiyotida obraz va obrazlilik tushunchasi mavjud bo‘lmagan degani emas. Adabiyotimizda Platon, Aristotel va Forobiy ilmiy asoslagan tushuncha, ya’ni borliqdan ta’sirlanish natijasida, uni badiiy qayta yaratish, voqelikni badiiy idrok etish va shu yo‘l bilan obraz yaratish juda qadim zamondan mavjud edi. Masalan, xalq og‘zaki ijodining “To‘fon”, “To‘maris”, “Shiroq” kabi afsonalari, “Kultegin”, “To‘nyuquq” kabi toshbitiglarini keltirish mumkin. Xususan, “To‘fon” afsonasida butun boshli vaziyat badiiy obraz sifatida ifodalangan. “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarida esa obrazning personaj formasidan faol foydalanilgan. Kul tegin va Tunyuquq toshbitiglarida turkiy davlatda muhim o‘ringa ega bo‘lgan vatanparvar shaxslar obrazi tasvirlangan. Keyinchalik bu jarayon yozma adabiyotga ko‘chgan. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida badiiy obraz haqida qimmatli izohlar keltirilgan. Xususan, “tadu – inson tabiati”, “tada-tata -manzara, bu o‘n qadam yerdan ko‘rinadigan yer bo‘lagi”. Bu so‘zlarning birinchisi xarakterga yaqinroq bo‘lsa, ikkinchisi esa

peyzajni anglatadi. Shu tomning boshqa o‘rnida “caw” so‘zining oltita ma‘nosi keltiriladi. Birinchisi – otalar so‘zi; ikkinchisi – qissa, qadimgi voqealardan xabar berish; uchinchisi, hikoya, biror voqeani aytib berish; to‘rtinchisi – risola, xat, kichik kitobcha; beshinchisi so‘z, nutq; oltinchisi ilgarigi xabarlarni, yangiliklarni yetkazuvchi bo‘lib, ulardan deyarli barchasi adabiyotshunoslikka oid deb sanaladi. Ammo so‘z, nutq deganda obraz hosil qiluvchi so‘zni ham tushunish mumkin. Shuning uchun bu yerda M.Koshg‘ariy adabiyotshunoslikka oid tushunchani ifodalagan deb hisoblanadi.

Voqelikni badiiy idrok qilishga oid tushunchalarni Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarlarida ham uchratish mumkin. Fikrimiz isboti uchun Yusuf Xos Hojibning quyidagi baytini keltiramiz:

Qora tun, yorug‘ kun bir-biridan yiroq,

Yashil suvga qizil o‘t bo‘lmas qo‘noq.

Yusuf Xos Hojib kim vazir bo‘ladi, degan savolga javob berayotib, ramziy obrazlar orqali inson xarakterining ikki qirrasini ishonarli tarzda ochib bergan. Qora tun, yorug‘ kun, yashil suv, qizil o‘t detal obrazlari yuksak falsafiy xulosani ifodalaydi. Ya‘ni tun va kun tabiatan bir-biridan uzoq ekanligi yoki yashil suvda qizil o‘t o‘smasligi ta‘kidlanishi orqali qalbi qora, o‘zi tundek kishilar hech qachon yorug‘ yuzli, quyoshdek istarali kishilar bilan birga ishlolmasligi, shuning uchun mamlakatni boshqarishda odamlarni ana shunday jihatlariga qarab ajratish va zarur hollarda to‘plashda e‘tiborli bo‘lish shartli aytilgan.

Demak, o‘zbek adabiyotida poetik obraz va uning talqini har bir davr va ijodkor uchun o‘ziga xos tarzda qadimdan rivojlanib kelgan. XX asrga kelib she‘riy asardagi lirik subyekt nisbatan ijtimoiylashib, lirik qahramon kichik olamida qator evrilishlar yuz berdi va endi ular qo‘llagan poetik obrazlar ham mumtoz adabiyotdagilardan farq qila boshladi. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan A.Avloniy, Tavallo, Siddiqiy-Azjiy, H.H.Niyoziy kabi jadid adabiyotining yorqin namoyandalari ijodida ko‘proq ma‘rifiy-tashviqiy xarakterdagi obrazlar yetakchilik qilsa, 20-yillarga kelib Fitrat, Cho‘lpon kabi ijodkorlar ijodida poetik mahorat yuksalib, ramziy-majoziy obrazlar orqali davr fojialari, milliy ozodlik, va ayniqsa, ko‘ngil erkinligi masalasi asosiy g‘oyaviy-estetik motivga aylangani kuzatiladi.

Aytish kerakki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida lirik obraz ichki olamida yuz bergan evrilishlar, jumladan, mavzularning ijtimoiylashuvi, vazn o‘zgarishlari, mafkuraviy biryoqlamalik kabi masalalar haqida adabiyotshunos U.Hamdammov o‘zining doktorlik dissertatsiyasining bir bobida fikr yuritib, bunday evrilishlarning ichki va tashqi omillarini aytib Furqatning “Vistavka xususida”, “Gimnaziya” she‘rlari misolida ko‘rsatib o‘tgan.

XX asrning 20-yillar oxiri va 30-yillar she‘riyatining asosiy mavzusini ijtimoiy muammolar fonida mehnatga da‘vat, sobiq sho‘rolar siyosati tomonidan talab etilgan yoki rag‘batlantirilgan g‘oyalarini kuylash yetakchilik qilganiga guvoh bo‘lamiz. Biroq shunday mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, bu davrlarda ham shoirlarimiz she‘riyatning go‘zal namunalarini yaratishga harakat qilishdi. Ayniqsa, Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, U.Nosir, Mirtemir, M.Shayxzoda, A.Muxtor, Zulfiya kabi shoirlarimizning bu davrda yozgan she‘rlari

poetik jozibadorligi bilan bugungi kunda ham kitobxon ruhiyatini nafis tuyg‘ularga oshno qilib kelmoqda. 50-60- yillarga kelib, o‘zbek she‘riyatida yangi bir ko‘tarilish boshlandi. Stalin vafotidan keyin boshlangan nisbiy erkinlik o‘zbek she‘riyatida G‘.G‘ulom, Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Zulfiya, A.Muxtor kabilar yoniga E.Vohidov, A.Oripov, keyinroq Rauf Parfi, Omon Matjon, Omon Muxtor kabi iste’dodlarni taqdim etdi. Ular she‘riyatda Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir kabi ijodkorlarning 30-yillardayoq bo‘g‘ilib qolgan sozlarini qayta sozlab, yangicha poetik mazmunda ko‘ngil torlarini cherta boshladilar.

O‘tgan asrning 70-90-yillar she‘riyati XX asr o‘zbek adabiyotida alohida sahifani egallaydi. 60-yillar adog‘ida she‘riyatga kirib kelgan bir to‘p yoshlar – Tilak Jo‘ra, Xurshid Davron, Usmon Azim, Azim Suyun, Shavkat Rahmon kabi ijodkorlar ijodi davr she‘riyatining ko‘zgusiga aylana bordi. Ular yaratgan she‘rlarning lirik qahramoni davrning o‘tkir ijtimoiy-ma‘naviy his-tuyg‘ularini o‘zida mujassamlashtirishi bilan alohida ajralib turadi. She‘rlarda qo‘llangan poetik obrazlar ham davr she‘riyati haqida tasavvurlarni boyitishga xizmat qildi.

Jumladan, o‘z ijodini 50-yillardan boshlagan, dastlabki she‘rini 60-yillar boshlarida e‘lon qilgan Rauf Parfining bu davrda yaratgan asarlarida garchi mavzu ko‘lami an‘anaviy – sevgi-muhabbat, shoirlik qismati, she‘riyat, inson qalbining turli xil manzaralarini ochishga qaratilgan mavzular yetakchilik qilsa-da, lekin zamondoshlaridan farq qiluvchi ifoda yo‘li bilan ajralib turadi. Shoirning “Oddiy gap” she‘rida hayotning mazmuni, tiriklik tushunchasi bosh mavzudir. Lekin shu an‘anaviy mavzu she‘r ifodasida tamoman boshqacha talqinda aks ettirilgan.

Hayot – juda oddiy,
Go‘yo bir bosh uzumni
yeb bitirmak kabi gap.
Umrining shoh tomirlarini
Shart kesmak kabi murakkab.

Shoir she‘rda yangicha poetik obrazlar yaratish orqali hayot deb atalmish tushunchani, uning falsafasini misralar qatidagi kontrastli tasvir orqali yoritadi. She‘r boshdan oxirigacha antetiza usulida bitilgan bo‘lib, hayotni oddiylik va murakkablik kabi falsafiy tushunchaning oralig‘idagi hodisa sifatida talqin etadi. Shoir she‘rda ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyani ochish uchun ko‘plab poetik vositalardan foydalanadi. She‘rda aks etgan falsafiy tushuncha – Hayotning talqini o‘ziga xos. Shoir shu o‘ziga xoslikning dastlabki bo‘lagi - oddiylikni “bir bosh uzum” detaliga, ikkinchi qism hisoblanuvchi murakkablikni esa umrning “shox tomiri”ga mengzaydi. Shoir she‘rda poetik unsurlar - uzum va shoh tomirga juda katta badiiy yuklama, katta falsafiy mazmun yuklagan. Darhaqiqat, hayot juda shirin, go‘yo uzumdek, ayni paytda juda murakkab, go‘yo umrning shoh tomirlarini kesmak kabi og‘riqli. Lirik qahramon ruhiyati go‘zallikka, yaxshilikka talpinadi, haqiqatga, aslga intiladi. She‘rni tutib turuvchi asosiy poetik obraz hayotdir. Hayot – abadiyat. Hayot – kitob. Oddiy, murakkab, ko‘pdan ko‘p va xilma-xil mazmunga ega kitob. Bu kitobni esa butun insoniyat turfa ko‘rinishlari bilan – butun murakkabligi, og‘ir fojiaaviy nuqtalari bilan, oddiyliги va nafis go‘zaligi bilan abadiyatga muhrlaydi. Hayot kitobini qanday bitmak insonning o‘ziga, uning murakkab taqdiriga bog‘liq.

Shoir hayot deb atalmish ko‘p qirrali murakkab jumboqni tasvirlashda soat, vaqt, abadiyat, tiriklik mevasi sanalmish – Men va Sen, gul, maktub, nafs, borliq va yo‘qlik, buyuklik, kitob kabi poetik unsurlar orqali voqyelashtiradi. Kitobxonga she‘rning mohiyatini ochish u qadar oddiy emas. Boisi she‘rda shoirning hayot haqidagi falsafasi, o‘tkir poetik nigohi, yangicha kashfiyotlari mujassam.

Ta’kidlash joizki, Rauf Parfi 60-70-yillardan boshlab she‘riyatga yangi bir yo‘nalish olib kirdi. An’anaviy poetik obrazlarning yangicha ma’no va mazmun bilan ifodalanishiga asos yaratdi. Bunday ifoda usullari ungacha Asqar Muxtorning ayrim she‘rlarida bo‘y ko‘rsatgan edi. Shoir she‘rlarida grajdanlik motivlari ham, tabiat va inson munosabatlari, sevgi-muhabbat motivi ham, eng avvalo, inson qalbi bilan, uning kechinmalari bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlandi. Qalbga qarab evrilish va uning favqulodda ifodasi Rauf Parfi she‘riyatining xususiyatidir. Biz buni shoirning shoirlik va she‘riyatga bag‘ishlangan, yurak va ko‘ngilga evrilgan, shuningdek, tabiat mavzusidagi qator she‘rlarida kuzatamiz. Barchasiga xos bo‘lgan xususiyat sifatida esa lirik qahramonning dilgir qalb kechinmalari, ezgin tuyg‘ulari yetakchilik qiladi. Uning “Shoir” she‘ri Abdulla Oripovga bag‘ishlangan mazkur she‘rida Abdulla Oripov ijodining asosi, shoirning qo‘liga qalam olib dardlarini to‘kishga majbur qilgan hodisa bu – Hazrati Inson ekanligi mohiyatda namoyon bo‘ladi.

Shoirni kuylatgan tabiat emas,

Shoirni kuylatgan Hazrati Inson.

Mana shu pafos, ya’ni Hazrati Insonni ulug‘lash, kuylash shoir she‘riyatining barchasiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biridir. Buni biz shoirning turli mavzularda yozgan she‘rlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Shoir she‘rlarining mavzu qamrovi juda keng. Bunda she‘riyat haqida ham, yurakning o‘ziga xos dardlari haqida ham, tabiatning turli ko‘rinishlari aks etgan she‘rlarida ham kuzatishimiz mumkin. Shunga ko‘ra, shoir she‘rlarida deraza raxiga qo‘nib turgan bir qushcha, deraza oynalarini charsillab savalagancha yog‘ayotgan yomg‘ir, derazadan boqayotgan zulmat-u oppoq bulutlarni to‘zg‘itib oqayotgan tong ham, derazadan mo‘ralab yog‘ayotgan pag‘a-pag‘a qor ham o‘ziga xos poetik obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Obrazlar qanchalik rang-barang bo‘lmasin, Rauf Parfi she‘riyati shoir qalb kechinmalarini, rangin tuyg‘ularini ochishga xizmat qiladi. Rauf Parfi ijodiga xos bo‘lgan ushbu xususiyatlar, ifodadagi o‘zgachalik poetik obrazlarning favqulodda tanlanishi, inson botiniga qarab evrilish uning izdoshi bo‘lgan Usmon Azim, Shavkat Rahmon va boshqa shoirlarning ham she‘riyatida namoyon bo‘la boshladi. Xususan, Usmon Azimning “Bu tosh...”, “Zanjirlarni uzdim...”, “Men baxtdan bebaxtlik topdim...”, “Qora tunda...”, “Horish”, “Gullar hidin...”, “Qavs”, “Ertak”, “Javzo”, “Hut” va balladalar turkumi kabi asarlarida aks etgan inson qalbining tizginsiz kechinmalari, talqin va ifodalari favqulodda topilgan poetik obraz va timsollari bilan bilan ajralib turadi. Shoirning bu kabi she‘rlarida so‘zlar majozlashib, qalb kechinmalarini ifodalashda uslubiy o‘ziga xoslikni hosil qiladi.

Usmon Azim bilan ketma-ketlikda ijod maydoniga kirib kelgan Shavkat Rahmon she‘riyatida ham shunday xususiyatni kuzatishimiz mumkin. Shoir she‘rlarida inson qalbi

manzaralari turli-tuman poetik obrazlar orqali ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Uning grajdanlik motivi bilan sug‘orilgan “Ozodlik qo‘shig‘i”, “Ummon”, “Muqaddima” kabi she‘rlarida ham, inson kechinmalari aks etgan “Nigor”, “Dastxat”, “Xayol”, “O‘zgaralar dardi...”, “Chaqin bo‘lma...”, “Vaqt” va tabiat tasvirlariga bag‘ishlangan turkum she‘rlarida ko‘ngilning turfa xil olamini obrazli tarzda ramziy ifodalar bilan chizilishiga guvoh bo‘lamiz.

Yuqoridagi qisqa kuzatuvlardan ayon bo‘layotirki, 70-90 yillar o‘zbek she‘riyatida yosh shoirlar ijodi alohida maqomga ega bo‘lib, ular ijodida yuz ko‘rsatgan poetik izlanishlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davrda an‘anaviy she‘riyat yoniga yangi bir yo‘nalish – inson qalb dramalarini ko‘proq ramziy-majoziy yo‘sinda ifodalovchi she‘riyat vakillari ham kirib kela boshladi. Ayni paytda an‘anaviy she‘riyat ham o‘zining yangi-yangi namoyandalarini kashf eta borib, adabiyotimizning yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. Bunda biz tadqiqot obyekti qilib olgan an‘anali shoir Azim Suyunning ham munosib o‘rni borligi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Афоқова Н. Жадид шеърляти поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – 140 б.
2. Бобоев Т. Шеър или таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 556
4. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. – Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б.
5. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
6. Суюн А. Танланган асарлар. 7 жилдлик. Жилд 5. – Т.: Ғулом номидаги нашриёт-матбаа, 2014. – 399 б
7. Суюн А. Танланган асарлар. 7 жилдлик. Жилд 6. – Т.: Ғулом номидаги нашриёт-матбаа, 2014. – 426 б
8. Суюн А. Танланган асарлар. 7 китоб. Жилд 7. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 408 б.